



TANQIDIY FIKRLASH MOHIYATI. PEDAGOGIK JARAYONDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Lutfullayeva Sug'diyona Baxtiyor qizi

Saylixonova Gulnoza Erkinovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

lutfullayevasug'diyona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Tanqidiy tafakkurning mohiyati, uning o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta'siri, shuningdek, mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoit va usullar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, tafakkur, pedagogik metodlar, interfaol usullar, aqliy hujum, INSERT, metodik yondashuv, o'quv faoliyati, mustaqil fikrlash, innovatsion texnologiyalar, analitik ko'nikmalar.

KIRISH Hozirgi vaqtga qadar tanqidiy fikrlash masalasi MDH va xorij olimlari tomonidan turli jabxalarda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotida Sharq ta'limi mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizda o'quvchilarni mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish zarurligi haqida o'rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganidek, ana shu tanqidiy fikrlash jarayonida, bugungi globallashuv asrida o'zlashtirilgan bilimlar ma'lum manbadan olingan bilimlarga nisbatan katta ustunlikka ega ekanligini ko'rsatish muhimdir. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tizimli tahlil qilish, dalillarning ishonchliligini baholash, qarama qarshi fikrlarni tortish va asosli xulosalar shakllantirishni o'z ichiga olgan kognitiv jarayon. Bu qobiliyat zamonaviy voqelikka samarali moslashishning ajralmas qismidir.

Zamonamiz olimlaridan S.S.G'ulomov o'z tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash uchun “dalillarni eslab qolish va g'oyalarni isbotlash” deb ta'rif beradi. O.S.Dadabolaeva esa o'zining “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlari” nomli tadqiqot ishida tanqidiy fikrlash haqida “Tanqidiy fikrlash - o'quvchining o'qituvchi rahbarligida mustaqil bilim olishi natijasida talabaning yanada rivojlangan shaxsi shakllanadi.” -deb ta'kidlaydi. Yana bir tadqiqodchilaridan biri T.B.Nazarov tanqidiy fikrlashga “Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli



ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir"-deya ta'riflaydi

Ma'lumki, inson bilim egallash va uni o'zlashtirish jarayonida tanqidiy yondashuvni qo'llamasa, tafakkur faoliyatida mustaqillik vujudga kelmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri – erkin, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashdir. Shu sababli umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari va texnikumlar, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning bilish jarayonini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish zarur bo'lib qolmoqda. Tanqidiy tafakkur tabiiy ravishda yuzaga kelmaydi; bu – o'quv jarayonida maqsadga yo'naltirilgan, izchil shakllanadigan malaka va kompetensiyalardandir. Ushbu ko'nikma foydali axborotlarni tahlil qilish, baholash, farqlash va ularni ijodiy qayta ishlashga asoslangan. Shuningdek, tanqidiy fikrlash an'anaviy o'quv predmeti emas, balki ta'lim samaradorligining natijasi sifatida qoraladi. Bu ko'nikma mavjud g'oyalarni boshqa fikrlar bilan solishtirish, baholash va ularning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish orqali yuzaga chiqadi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1)da'vat,
- 2)anglash
- 3)fikrlash.

Da'vat bosqichda interfaol o'qitish metodlaridan – xususan, "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalaniladi. O'quvchilar o'zlarining mavjud bilim va taxminiy tasavvurlarini aniqlab, erkin tarzda bayon etadilar. Bu jarayon individual, juftlikda yoki guruh shaklida amalga oshiriladi. Barcha fikrlar to'g'riligidan qat'i nazar, doskaga yozib boriladi. O'qituvchi esa ushbu jarayonda faqat yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi sifatida qatnashadi. Uning asosiy vazifasi – savollar orqali o'quvchilar tafakkurini faollashtirish, muhokamaga tortilmagan masalalarni ilgari surishdir. Ushbu bosqich o'quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtirish, ularni o'z bilimlari ustida fikr yuritishga undash orqali yangi mavzuni anglashga tayyorlash vazifasini bajaradi. Psixologik jihatdan qaralganda, yangi axborot mavjud bilimlar bilan integratsiyalanmasa, u qisqa vaqt ichida unutilishi ehtimoldan xoli emas. Zero, ta'lim bu – yangi bilimlarni tizimli ravishda egallash, saqlash va qo'llash jarayonidir. Anglash bosqichda



o'quvchilar yangi axborot bilan muloqotga kirishadilar.

Bu muloqot matn o'qish, ma'ruzani tinglash, videomateriallarni ko'rish, tajriba o'tkazish yoki boshqa turdagi bilim manbalari orqali yuzaga keladi. Bu bosqichda o'qituvchining roli minimal bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, INSERT (Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) usuli samarali vosita hisoblanadi. Mazkur metod o'quvchilarga matnni o'qish jarayonida fikr yuritish, savol berish, shubha bildirish va yangi bilimlarni ilg'ash imkonini beradi. Anglash bosqichining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilimlarni chuqur egallashga xizmat qiladi. Passiv yoki sust fikrlovchi o'quvchilarning ham faolligini ta'minlash uchun strategik yondashuvlar talab etiladi. An'anaviy ta'limda bu bosqich ko'pincha yetarlicha e'tibordan chetda qoladi, bu esa o'quvchilarning bilimlarni chuqur anglashlariga to'sqinlik qiladi. Fikrlash bosqichda o'quvchilar yangi o'zlashtirilgan bilimlarni mavjud bilimlari bilan integratsiyalaydilar, ular asosida yangi tasavvurlar hosil qiladilar va o'z mulohazalarini mustaqil shakllantiradilar. Tanqidiy fikr yuritish jarayonida o'quvchilar yangi ma'lumotlarni o'z so'zlari orqali ifodalashga intiladilar, bu esa ularning tafakkur doirasini kengaytiradi. Shuningdek, bu bosqichda o'quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, muqobil fikrlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni hal etishda turli yondashuvlardan foydalanish malakalarini egallaydilar. Shu bilan birga, o'quvchilar orasida erkin fikr almashish, boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilish va o'z fikrini muloqot madaniyati doirasida bayon etish ko'nikmalari shakllanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Tanqidiy fikrlash (critical thinking) kontseptsiyasi falsafa tarixida qadimdan mavjud bo'lib, uning asosiy ma'nosi inson tafakkurining mustaqil va ongli faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq. Aristotel va Suqrot kabi qadimgi yunon faylasuflari tanqidiy fikrlashni insonni ma'lumotlar va voqealarni qabul qilishda passiv emas, balki faol yondashishga o'rgatadigan jarayon sifatida ko'rgan. Ular fikrni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini tarbiyalashni muhim deb hisoblaganlar. Suqrot metodologiyasi, ya'ni dialektik usul, tanqidiy fikrlashning dastlabki nazariy bazasi sifatida qaraladi. Ushbu metod shaxsni savollar berishga, javoblarni tahlil qilishga va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi. Aristotel esa mantiq va silsilaviy xulosalar chiqarish orqali tanqidiy fikrlashning intellektual mexanizmlarini aniqladi. O'rta



asrlarda tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi teologik va falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashib, insonning ilmiy va axloqiy qarorlar qabul qilishida mantiqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qildi. XVI–XVIII asrlarda esa tanqidiy fikrlashning ilmiy-nazariy asoslari Renessans va Aqliy yuksalish davrida rivojlana boshladi. Bu davrda faylasuflar, xususan, Fransis Bekon va Dekart,

tanqidiy fikrlashni ilmiy metodologiya bilan bog'lab, empirik dalillar va ratsional tahlil asosida qarorlar qabul qilishni targ'ib qilganlar. XX asrda tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi pedagogika va psixologiya sohalarida yanada keng qamrovli talqin topdi. J. Dewey tanqidiy fikrlashni shaxsning ijtimoiy muammolarni mustaqil aniqlash va yechim topish qobiliyati sifatida belgiladi. Dewey nazariyasida tanqidiy fikrlash faqat bilimlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, izohlash va ijodiy tatbiq etishga qaratilgan faoliyatdir. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash nazariyasi falsafa, psixologiya va pedagogika integratsiyasida shakllangan va zamonaviy ta'lim jarayonining poydevorini tashkil qiladi. Tanqidiy fikrlashning psixologik asoslari inson tafakkurining kognitiv va metakognitiv

jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jarayonlar shaxsning ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yangi xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash shunchaki bilimni eslab qolishdan iborat emas, balki ma'lumotlarni faol qayta ishlash, ularni solishtirish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va muammolarni mantiqiy tahlil qilishdan iborat. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi tanqidiy fikrlashning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Piaget shaxsning fikrlash darajalari rivojlanishini tahlil qilgan va yuqori darajadagi abstrakt mantiqiy tafakkur, ya'ni formal operatsiyalar bosqichi, tanqidiy fikrlashning asosiy psixologik poydevori ekanligini ta'kidlagan. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ularning kognitiv rivojlanish bosqichi bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, metakognitiv nazariyalar (J. Flavell, D. Perkins) tanqidiy fikrlashni o'z fikrini anglash va boshqarish qobiliyati

bilan bog'laydi. Metakognitsiya shaxsning o'z fikrlash jarayonini kuzatishi, xatolarini aniqlashi va tuzatishi, qarorlarini qayta ko'rib chiqishi imkonini beradi. Shu bilan birga, metakognitiv qobiliyat tanqidiy fikrlashning samaradorligini oshiradi va shaxsga murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyati ijtimoiy va hissiy komponentlar bilan ham bog'liq. Hissiy intellekt (E. Goleman) va ijtimoiy tafakkur tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular shaxsga fikrlarni konstruktiv muhokama qilish, qarama-qarshi



nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ijtimoiy muloqotda samarali qatnashish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi,

chunki u nafaqat bilim olish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish

qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va baholash tizimi orqali shakllantiriladi. Birinchidan, ta'lim mazmuni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Bu jarayonda o'quv materiallari faqat fakt va ma'lumotlarni uzatishdan iborat bo'lmasligi, balki muammolarni aniqlash, sabab-natija munosabatlarini tahlil qilish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalan, tarix darslarida voqealarni o'rganish jarayonida nafaqat ularning ketma-ketligini yodlash, balki voqealarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstini tahlil qilish talab qilinadi.

Ikkinchidan, pedagogik jarayon metodik jihatdan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi: Muammoga yo'naltirilgan o'qitish (Problem-Based Learning, PBL) – o'quvchilar real hayotiy yoki nazariy muammolarni hal qilish orqali bilimni amaliyotda qo'llashni o'rganadi, mantiqiy tahlil va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Diskussiya va debat metodlari – o'quvchilar fikr almashish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish va asosli argumentlar keltirish orqali tanqidiy fikrlashni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Reflektiv metodlar – o'quvchilar o'z fikr va xatti-harakatlarini tahlil qilib, xatolarini aniqlash va yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchidan, baholash tizimi tanqidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. An'anaviy test va imtihonlar faqat faktlarni eslab qolishni o'lchasa, tanqidiy fikrlashni baholashda o'quvchilarning tahliliy va ijodiy qobiliyatlari, argumentatsiya va qaror qabul qilish ko'nikmalari hisobga olinadi. Masalan, case-study ishlari, portfoliolar, loyiha ishlari va og'zaki prezentatsiyalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda

samarali vositalar hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda o'quvchilarni faol o'rganishga jalb qilish, ularning motivatsiyasini oshirish, o'z fikrini ifodalash va konstruktiv tanqidni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlashning ijtimoiy komponentini rivojlantiradi va o'quvchilarni murakkab ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlaydi.



Natijada, pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va baholash tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik va metodik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu bo'limda biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy metodik yondashuvlari va usullarini ko'rib chiqamiz. Muammoga yo'naltirilgan o'qitish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda eng samarali metodlardan biridir. Ushbu yondashuvda o'quvchilar aniq vaziyatlar va real hayotiy muammolarni hal qilish orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantiradilar. PBL jarayonida quyidagi bosqichlar mavjud: Axborot yig'ish va tahlil qilish – o'quvchilar muammoni hal qilish uchun zarur

ma'lumotlarni topadi, uni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

G'oyalarni ishlab chiqish – turli yechim variantlari ishlab chiqiladi va ularning samaradorligi baholanadi. Natijani taqdim etish va baholash – o'quvchilar yechimni sinf yoki guruh oldida taqdim qiladi, o'zaro baholash amalga oshiriladi. Bu metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy hamkorlikka va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Diskussiya va debatlar o'quvchilarni fikr almashishga, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilishga va asosli argumentlar keltirishga o'rgatadi. Ushbu metodlar quyidagi xususiyatlarga ega: Faollik – o'quvchilar passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Argumentatsiya – o'quvchilar o'z fikrini asoslashni o'rganadi. Tahlil va sintez–turli fikrlarni solishtirish va yakuniy xulosa chiqarish

ko'nikmasi rivojlantiriladi. Debatlar va diskussiyalar, ayniqsa, tarix, siyosat, ijtimoiy fanlar va iqtisodiyot fanlarida samarali qo'llanadi. Refleksiya o'quvchilarga o'z fikr va xatti-harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Reflektiv metodlar orqali o'quvchilar: O'z qarorlarining asosli yoki noto'g'ri tomonlarini aniqlaydi; Muammolarni hal qilish jarayonida yuzaga kelgan xatolarni tushunadi; Kelajakda samarali yechimlarni ishlab chiqishga tayyorlanadi. Reflektiv metodlar individual o'rganishga, jurnal yozishga, portfoliolar tayyorlashga va o'z-o'zini baholashga asoslangan bo'lishi mumkin. Zamonaviy ta'limda interaktiv texnologiyalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim vositadir. Bu texnologiyalar: Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – o'quvchilarga real vaziyatlarni imitatsiya qilish imkonini beradi; Onlayn platformalar va forumlar – fikr almashish va muammolarni muhokama qilish uchun qulay muhit yaratadi; Multimedia va vizual vositalar – ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar



chiqarishni osonlashtiradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar yordamida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy qobiliyatlari mustahkamlanadi, ularni murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy- madaniy sharoitlarga moslashishga o'rgatadi.

Xulosa

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, uning mohiyati, pedagogik yondashuvlari va baholash tizimi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: Tanqidiy fikrlash zamonaviy ta'limning asosiy komponenti bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil fikrlash, analitik va ijodiy yechim ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy va metodik asoslar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Baholash tizimi va mezonlari o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va pedagogik strategiyalarni takomillashtirish imkonini beradi. Milliy va global kontekstni hisobga olish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida muhim bo'lib, bu o'quvchilarning ijtimoiy, madaniy va professional muhitga moslashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki jamiyatdagi ijtimoiy faollik, madaniy tafakkur va fuqarolik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M., G'oziyev E. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
3. Husanboeva R. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Qodirov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, Press, 2014.
5. Zagashev I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. - Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2003.- 284 b.
6. Zagashev I.O., "Savol berish qobiliyati". - Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2005 yil.
7. Mushtavinskaya I.V. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi: ilmiy va uslubiy aks ettirish: [Xalqaro loyiha doirasida Sankt-Peterburg shahridagi 177-sonli gimnaziya tajribasidan]